

O'SMIRLARDA OILAVIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATI

Sulaymonova Saida Abduhakimovna
Osiyo xalqaro universiteti magistranti
Ilmiy rahbar O.R.Avezov

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'smirlik davrida o'smir shaxsi va uning ota-onasi o'rtasidagi munosabatlar va o'zgarishlar yoritilgan, ota-onalarning o'smir farzandlari bilan munosabatlariga turli olimlarning bildirgan fikrlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ota-ona va o'smir munosabatlarida vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini olish, korreksiya qilish bo'yicha fikrlar bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *o'smirning ota-ona bilan munosabati, emotsional qaramlik, hissiy ilqlik, boshqaruvchi hokimiyat, yaxshi sifatlar namunasi, katta do'st, maslahatchi, mustaqillikka intilish, emotsional bog'lanish, inqiroz davri, oiladagi muhit, psixologik to'siq, giperproteksiya, gipoproteksiya, emotsional raddiya.*

Annotation: *This article examines the issues of changing the relationship of the personality of a teenager and parents, Consider the views of different authors on the relationship between adolescents and parents. And also recommendations are given to parents on the correct structure of relations, with the child - adolescent, on the correction of relationships and on the prevention of problems arising in the internal family relations.*

Keywords: *the relationship of a teenager with parents, emotional dependence, emotional warmth, old friend, the desire for independence, emotional connection, crisis period, family climate, psychological barrier, hyperprotection, hypoprotection, emotional rejection.*

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda yoshlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, o'smirlar hukumatimizning diqqat e'tiborida. Chunki o'smirlik davrida organizmning jadal o'sishi, ichki sekresiya bezlari faoliyatidagi o'zgarishlar o'smir shaxsida keskin o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Buning oqibatida o'smirlarning atrofdagilar, ayniqsa, kattalar: ota-ona, o'qituvchilar bilan munosabatlarida nizolar yuzaga keladi. Ota-onalar va o'qituvchilar o'smirlik davrida shaxsda o'zgarishlar kechishini, bu inqiroz davri, xalq tilida aytganda "qiyin davr", "o'tish davri" ekanligini biladilar. Lekin o'smir bilan munosabatlarni qurishda bu holatni hisobga olmasdan, hissiyotga beriladilar, ziddiyatga boradilar. Buning oqibatida o'smir darslardan sovushi, darsga bormasdan vaqtni ko'chada o'tkazishi, ba'zi holatlarda deviant guruhlariga qo'shilib huquqbuzarliklar sodir etishi mumkin. O'smirlarda eng ko'p ziddiyat ota-onalar bilan munosabatda kuzatiladi. O'smirlik davridagi eng katta muammo – bu ota-onalar bilan munosabatlarning qayta qurilishidir, ya'ni bolalikdagi bog'liqlik, tobelikdan, o'zaro ishonchga, hurmatga va nisbiy bo'lsa ham uzluksiz o'sib borayotgan tenglikka asoslangan

munosabatlarga o'tishdir. Ko'pgina oilalarda, bunday qayta qurish qiyin kechadi va bu holat ota-onalar tomonidan quloqsizlik sifatida idrok qilinadi. Lekin bu holatga shakllanayotgan shaxs nuqtai nazaridan qarab ko'raylik.

ASOSIY QISM

Turli bolalarning fikricha, ota va onalar ular uchun: hissiy ilqlik va qo'llab quvvatlovchi inson, boshqaruvchi hokimiyat, jazolovchi va mukofotlovchi, taqlid uchun namuna, donolik va insondagi eng yaxshi sifatlar namunasi, katta do'st va maslahatchi, barcha narsani ishonish mumkin bo'lgan inson. Lekin bu vazifalarning har birining o'zaro nisbati va psixologik ahamiyati yosh o'sishi bilan o'zgarib boradi. Bolaning ota-onaga emotsional bog'liqligi asosida dastlab ularga qaramligi yotadi. Faoliyatning, tashabbuskorlikning o'sib borishi bilan bu qaramlik o'smirlik davrida unga malol kela boshlaydi. Ota-ona muhabbatining yetmasligi juda yomon holatdir, lekin haddan ortiq ko'pligi ham zararlidir. U o'smirda ichki o'z-o'zini boshqarishning shakllanishini qiyinlashtiradi, g'amxo'rlikka barqaror ehtiyojni, xarakterning tobelik sifatini vujudga keltiradi. Farzandini haddan ortiq yaxshi ko'radigan onalar bolasini o'zlaridan alohida ko'rishga qodir emaslar. Lekin emotsional qaramlikni uzmasdan va ota-onasi bilan munosabatiga yangi, yanada murakkab emotsional bog'lanishni, markazi ota-ona emas o'zi bo'lgan yanada murakkab tizimni kiritmasdan turib o'smir katta bo'la olmaydi. Ko'pgina ota-onalar farzandlari tomonidan sovuqlikni his qilib, bolalari ularni yaxshi ko'rmay qo'ygan deb o'ylaydilar, ularni rahmsizlikda ayblaydilar. Lekin inqiroz davri o'tgach, agar ularning o'zlari buni noto'g'ri tarbiya bilan buzib qo'ymasalar, odatda, munosabatlar yuqoriroq, ongli darajada qayta tiklanadi. O'smirlik davri – bu mustaqillikka intilish davridir. Bu davrning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'smirning oiladan ajralishi qanday borayotganligiga bog'liq, ya'ni o'smir bilan ota-ona o'rtasida xomiylik, g'amxo'rlik emas, balki, hamkorlikka asoslangan o'zaro munosabatlarning qurilishiga bog'liq. Ota-onaning vazifasi – o'smirlarga katta bo'lishga yordam berishdan iborat. Agar oila o'smirni “qo'yib yuborish”ga tayyor bo'lmasa, bolaning xaq – huquqlari va uning mustaqilligiga qarashlar o'smirda va ota-onada farq qilsa, bu holda o'smir va ota-ona munosabatlarida muammolar yuzaga keladi. Boladagi mustaqillikning o'sishi ota-ona boshqaruvini chegaralab qo'yadi. O'smir o'z vaqtini mustaqil taqsimlaydi, do'stlarni va dam olish usullarini o'zi tanlaydi. Bu holatni ota-onalar qabul qilishlari qiyin kechadi. Sababi, ota-onalar ko'pincha o'smir bilan yangi tipdagi munosabatlarni qurishga, xususan, o'smirning mustaqilligini, haq-huquqlarini kengaytirishga tayyor bo'lmaydilar. Chunki insonning huquqlari uning egallab turgan mavqei o'zgarishi bilan o'zgaradi. O'smir hali ham o'quvchiligidan qoladi, moddiy jihatdan ota-onasiga bog'liq bo'ladi, ota-ona ilgorigidek tarbiyachi rolini bajaradilar. Shuning uchun ham ota-onalarda o'smirlarga yosh bolaga qilinadigan munosabat saqlanib qoladi va ular biron nimani o'zgartirishni xohlamaydilar. O'smirlar esa ko'proq ota-onasida o'z do'stlari va maslahatchilarini ko'rishni xohlaydilar. O'smirlar qanchalik mustaqillikka intilmasinlar ular kattalarning yordam va hayotiy tajribasiga, maslahatiga muhtojdirlar. Ko'pgina muammolarni o'smirlar tengdoshlari bilan umuman muhokama qila olmaydilar: o'ziga o'xshagan hayotiy tajribaga ega bo'lmagan

odam nima maslahat bera olardi? Ko'pchilik o'smirlar uchun ota-onalari ularni tushunishlari juda muhim bo'lib qoladi.

Psixolog V.Rudenkoning fikricha, o'smir va ota-ona munosabatlarida uchta ko'rinish yuzaga kelishi mumkin: Birinchi ko'rinish: qarama-qarshiliklar ortib boradi, nizolar chuqurlashadi va kengayadi. O'smirda shaxsning salbiy sifatlari, ya'ni agressivlik, yolg'onchilik va boshqa salbiy sifatlar shakllanadi. Ota-ona bilan munosabatlar o'smir uchun o'z ahamiyatini yo'qotadi. Ota-ona asta-sekin obro'sini yo'qotadi, ularning talablari, qarashlari, baholari inkor etiladi. Ota-onaga noroziligini ko'rsatish uchun o'smir darslardan qochadi, cheka boshlaydi, ota-ona ta'qiqlagan bolalar bilan do'stlashadi, ba'zi holatlarda uydan qochadi, spirtli ichimlik iste'mol qiladi, narkotik moddalar qabul qila boshlaydi. 134 Ikkinchi ko'rinish: oilada qarama-qarshilik mavjud bo'lib, u faqat epizodik ravishda nizolarga aylanadi. Ota-ona o'smirda munosabatlarini butunlay o'zgartirmasalarda, lekin ba'zi-ba'zida uning bosimiga yon bosadilar va ilgari ruxsat bermagan narsalarga ruxsat beradilar. Shuning uchun to'qnashuvlar kam bo'ladi, lekin ularning ro'y berish ehtimoli uzoq vaqt saqlanadi. Uchinchi ko'rinish: ota-ona o'smirda asta-sekin bolani emas, balki ancha voyaga yetib qolgan shaxsni ko'ra boshlaydilar va shunga muvofiq unga munosabatni ham o'zgartiradilar. Buning natijasida nizoli vaziyatlar vaqt o'tishi bilan yo'qoladi, muammoli muloqot o'rnini o'zaro ishonch, xamkorlik munosabatlari egallaydi. O'smirlar va ota-ona munosabatlarini to'g'ri qurishda qanday tarbiyaviy usullardan foydalanish kerak?

V.Karimova oilalardagi farzandlarni tarbiyalashning turli uslublarini keltiradi: Giperproteksiya - haddan ziyod g'amxo'rlik ko'rsatish. Ota-ona farzand tarbiyasiga kuchi, vaqti va e'tiborini ayamaydi. Farzand tarbiyasi ota-ona hayotining mazmuniga aylanadi. Bolaning barcha ehtiyojlari, istaklari qondiriladi, uning xatolari sezmaslikka harakat qilinadi. O'smirlik davriga kelganda bunday bolalar tengqurlari xohish istaklarini bajarishlarini xohlaydi, liderlikka intilmoqchi bo'ladi, lekin unda bunday sifatlar bo'lmaydi. G'amxo'rlikdan ustun keladigan giperproteksiya. Bunda bolani erkalatishlardan ko'ra, uning har bir qadamini nazorat qilish ustunlik qiladi. Bolaning hayotida chegaralashlar, ta'qiqlar (mumkin emas) ko'p bo'ladi. Bunday bola katta bo'lganida mustaqil qaror qabul qila olmaydigan, sal narsaga jahli chiqadigan, doimiy nazoratga, boshqalarning yo'-yo'riqlariga ehtiyoj sezadi. O'ta kuchli axloqiy mas'uliyat. Bunda ota-ona tomonidan bolaning yoshi, aqli, jismoniy imkoniyatlariga zid yuqori talablar qo'yiladi, lekin uning xohish istaklari, ehtiyojlari e'tiborga olinmaydi. Emotsional raddiya. Ota-ona bolaga ularning hayotlarini og'irlashtirayotganligi, u bo'lmaganda hayotlari boshqacha bo'lishi mumkinligini aytib turadilar. Bunday munosabatlar bolani oiladan uzoqlashtiradi. Qattiqqo'llik. Bu emotsional raddiyaga o'xshaydi, lekin undan og'irroq. Bola yoshlikdan kaltak, haqorat va so'kishlar ostida katta bo'ladi. O'smirlik davriga kelib bunday oilalarda katta bo'lgan bolalar o'zidan zaiflarga nisbatan o'ta shavqatsizlikni namoyon qilishlari mumkin. Gipoproteksiya. Ota-onaning bola bilan shug'ullanishiga vaqti yetishmaydi yoki buni boshqalarga yuklab qo'yadi. Bunday oilalarda bola o'z xoliga tashlab qo'yiladi. Unga nisbatan befarqlik muhiti hukm suradi. Xulqi nazorat qilinmaydi. Bunday oilalarning farzandlari o'smirlik davrida jinoiy gurlarga kirib ketish ehtimoli yuqori. I.S.Kon

rahbarligida o'smirlarda tadqiqot o'tkazilgan. O'smirlardan o'zlaridagi turli sifatlarni (mehribonlik, kirishimlilik, mardlik, o'ziga ishonch va x.k.) besh balli tizimda baholash so'ralgan. Shundan so'ng, xuddi shu tizim bo'yicha ota-onalari, do'stlari va sinfdoshlari tomonidan qanday baholanishlarini topish so'ralgan. Maktabga ota-onalar taklif qilinib o'zlarining farzandlarini baholashlari va farzandlari o'zlariga qanday baho berishlarini topish so'ralgan. Aniqlanishicha, bolalar ota-onalari tomonidan qanday baholanishlarini aniqroq topishgan. Ota-onalar esa farzandlari o'zlariga qanday baho berishlarini aniqlashda ko'proq xatoga yo'l qo'yganlar. Ota-onalar uchun farzandlari o'z-o'zlariga beradigan bahoni topish murakkablik qilgan. Ular farzandlarining o'z-o'ziga beradigan bahosida ko'proq o'zlarining baholarini berganlar. Bu holat ota-onalar uchun farzandlarining "Men" ini noma'lum ekanligini ko'rsatadi. Farzand uchun ota-onasi unga beradigan bahoni topish qiyin emas. Chunki ko'pchilik ota-onalar farzandlariga to'g'ridan-to'g'ri u haqidagi fikrlarini aytadilar. Shuning uchun o'smir uchun ota-onasining unga beradigan bahosini topish oson.

XULOSA

Ota-onalar esa yangitdan o'zgaruvchan va qarama-qarshi o'smirlik "Men" ini baholashlari kerak. Ota-onaning o'g'li yoki qizining "Men" obrazi haqidagi noto'g'ri tasavvuri bolalarini tushunishni jiddiy ravishda qiyinlashtiradi. Ota-onalar o'smir va o'smirlikning ichki dunyosidagi o'zgarishni anglashni xohlamaydilar. Yaxshi ota-ona o'z bolasini boshqalardan ko'ra, hatto bolaning o'zidan ham yaxshiroq biladi. Psixolog T.N.Malkovskayaning tadqiqotlarida o'smirlar va o'spirinlar bo'sh vaqtlarini tengdoshlari bilan o'tkazishni xohlashlarini bildirganlar. Ota-onaning farzandiga ta'siri o'smirlik davrida kamaymaydi, balki ular o'rtasidagi munosabatlarda sifat o'zgarishlari ro'y beradi. Oilaning tarbiyaviy ta'sirining samaradorligi ota-onalarning bu o'zgarishlarni qanchalik hisobga olishlariga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimova V.M. Akramova F.A. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. -T., 2000.
2. Karimova V.M. Oila psixologiyasi.. -T., 2007.
3. Kon I.S. Psixologiya ranney yunosti. –M. Iz-vo Prosvещenie. 1989.
4. Rudenko V. Perexodnyy vozrast. Razrulivaem situatsii- M.Iz-vo Feniks, 2015.
5. To'laganova G.Q.Tarbiyasi qiyin o'smirlar. -T.,2005. 6. G'oziev E.G'. Ontogenez psixologiyasi. -T., 2010.